“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



Ma’muriy tartib-taomillar asosiy prinsiplarining huquqiy ahamiyati

Behruz Eshpo‘latov,
Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: behruzeshpulatov0202@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada ma’muriy tartib-taomillar asosiy prinsiplarining huquqiy ahamiyati kompleks tarzda, nazariy-huquqiy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda ma’muriy tartib-taomillar tushunchasi, uning ma’muriy huquq tizimidagi o‘rni va davlat boshqaruvi samaradorligini ta’minlashdagi roli ochib beriladi. Xususan, mutanosiblik, tinglanish imkoniyatining mavjudligi, ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarliligi, manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi, mazmunan qamrab olish, teng huquqlilik, ishonchning himoya qilinishi, ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsion vakolat)ning qonuniyligi kabi prinsiplarning mazmun-mohiyati ilmiy manbalar va ilg‘or xorijiy tajriba asosida yoritiladi.Maqolada ushbu prinsiplarning ma’muriy organlar faoliyatida inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, ma’muriy qarorlarning sifatini oshirish hamda davlat va fuqaro o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashdagi o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, ma’muriy adliya institutlari rivoji hamda ma’muriy nizolarni sud tartibida ko‘rib chiqishda ma’muriy tartib-taomillar prinsiplariga rioya etishning ahamiyati tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba, xususan, Germaniya, Fransiya va Rossiya davlatlari amaliyoti misolida ma’muriy tartib-taomillarni takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari ma’muriy-huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish, ochiq va hisobdor davlat boshqaruvini shakllantirish hamda huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Калит сўзлар. ma’muriy tartib-taomil, prinsiplar, ma’muriy huquq, qonuniylik, mutanosiblik, ishonchning himoya qilinishi, tinglanish huquqining mavjudligi, diskretsion vakolat, ma’muriy sudlov.

Аннотация. В данной статье комплексно, с теоретико-правовых и практических позиций, анализируется правовое значение основных принципов административных процедур. В исследовании раскрывается понятие административных процедур, их место в системе административного права и роль в обеспечении эффективности государственного управления. В частности, на основе научных источников и передового зарубежного опыта освещается содержание и сущность таких принципов, как соразмерность, возможность быть выслушанным, открытость, прозрачность и понятность административных

процедур, приоритет прав заинтересованных лиц, содержательного поглощения, равноправие, защита доверия, а также правомерностиадминистративного усмотрения (дискреционных полномочий).В статье обосновывается значение данных принципов в деятельности административных органов по обеспечению прав и свобод человека, снижению бюрократических барьеров, повышению качества административных решений, а также укреплению взаимного доверия между государством и гражданином. Кроме того, анализируется их роль в развитии института административной юстиции и значение соблюдения принципов административных процедур при судебном рассмотрении административных споров. На основе международного опыта, в частности практики Германии, Франции и России, предлагаются направления совершенствования административных процедур. Результаты исследования направлены на углубление административно-правовых реформ, формирование открытого и подотчетного государственного управления и укрепление принципов правового государства.

Ключевые слова. административная процедура, принципы, административное право, законность, соразмерность, защита законных ожиданий, право быть заслушанным, дискреционные полномочия, административное судопроизводство.

Annotation. This article provides a comprehensive theoretical and practical analysis of the legal significance of the fundamental principles of administrative procedures. The study examines the concept of administrative procedures, their place within the system of administrative law, and their role in ensuring effective public administration. In particular, based on scholarly sources and advanced foreign experience, it explores the content and essence of such principles as proportionality, the right to be heard, openness, transparency and clarity of administrative procedures, the priority of the rights of interested persons, substantive comprehensiveness, equality, protection of legitimate expectations, and the legality of administrative discretion (discretionary powers).The article substantiates the importance of these principles in guaranteeing human rights and freedoms in the activities of administrative authorities, reducing bureaucratic barriers, improving the quality of administrative decisions, and strengthening mutual trust between the state and citizens. It also analyzes their role in the development of administrative justice and the significance of adherence to procedural principles in the judicial review of administrative disputes. Drawing upon international experience, particularly the practices of Germany, the Republic of Korea, and Singapore, the paper proposes directions for improving administrative procedures. The findings contribute to the deepening of administrative law reforms, the establishment of open and accountable governance, and the consolidation of the rule of law.

Keywords. administrative procedure, principles, administrative law, legality, proportionality, protection of legitimate expectations, right to be heard, discretionary powers, administrative justice.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi hisoblanadi. Shuningdek, davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlash vazifasini zimmasiga oladi. Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda bevosita davlat organlari va tashkilotlariga, xususan ma’muriy organlarga murojaat qilishlariga to‘g‘ri keladi. Bunday hollarda ularning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari ma’muriy organlar tomonidan doim ham himoyalangan bo‘lmaydi. Shuning uchun ham davlat organlari va tashkilotlari ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishda muayyan umume’tirof etilgan qoidalarga, ma’muriy tartib-taomillarning prinsiplariga amal qilishlari talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi bilan mamlakatimiz huquq tizimida prinsiplarning o‘rni va ahamiyati yanada mustahkamlandi. Ma’muriy tartib-taomillar prinsiplari shunchaki deklarativ xarakterdagi jumlalar emas, balki ma’muriy hujjatning qonuniyligini belgilovchi, ma’muriy ixtiyoriylik chegaralarini chizib beruvchi oliy huquqiy mezonga aylandi. Mazkur qonun bilan ma’muriy tartib-taomillarning eng asosiy 13 ta umumiy va maxsus prinsiplari belgilab qo‘yildi.

Germaniyalik olim Y. Tsikoning ta’kidlashicha, ma’muriy tartib-taomillar prinsiplari sodda, maqsadga muvofiq va tezkor qo‘llanishi lozim.[1] Ya’ni muayyan ma’muriy faoliyat yuzasidan ma’muriy hujjat qabul qilishda u aniq bir faktga tayangan bo‘lishi lozim. Shuningdek, ma’muriy ish uchun aloqasi bo‘lmagan dalillarni isbotlash talab etilmaydi. Bu esa ma’muriy tartib-taomillar prinsiplarini maqsadga muvofiq qo‘llanilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yozma tarzda asoslab berilgan dalillarni isbotlash uchun fuqaroni bu ishga jalb etish shart emas. Ma’muriy tartib-taomillar prinsiplarining tezkor qo‘llanilishi vaqtni behuda sarflamasdan operativ tarzda amalga oshirilishida ko‘rinadi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunining 152-moddasiga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi notariusga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazish davrida litsenziyaning amal qilishini o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga to‘xtatib turishga haqli. Mazkur normada xizmat tekshiruvi paytida notarius litsenziyasini to‘xtatib turish o‘n kundan oshmasligi belgilab berilgan. Bunday holda Adliya vazirligi va hududiy adliya organlari xizmat tekshiruvi ertaroq yakunlanganda yoki xizmat tekshiruvi davrida notarius faoliyatida qonun buzilishi holatlari aniqlanmagan taqdirda o‘n kunlik muddatni qisqartirib, notarius litsenziyasini qayta faollashtirishi lozim.[2]

Ushbu maqolada ma’muriy tartib-taomillar prinsiplarining ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Ma’muriy tartib-taomillarning **qonuniylik** prinsipi ma’muriy huquqning fundamental tamoyillaridan biri bo‘lib, u davlat boshqaruvi organlari va mansabdor shaxslarning har qanday faoliyati faqat va faqat qonunga asoslanishi, qonun doirasida amalga oshirilishi hamda qonun bilan cheklanishini anglatadi. Ushbu prinsip huquqiy davlat g‘oyasining ma’muriy protsessual huquq sohadagi ifodasi bo‘lib, davlat hokimiyati ixtiyoriy emas, balki normativ-huquqiy asosga ega bo‘lishi shartligini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasida mazkur prinsip normativ jihatdan Ma'muriy tartib-taomillar

to‘g‘risidagi Qonunning 6-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra ma’muriy tartib-taomillar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi shart. Bu qoida nafaqat protsessual shaklga rioya qilishni, balki ma’muriy hujjatning mazmunan ham qonunga mos bo‘lishini talab etadi.

Qonuniylik prinsipi nazariy jihatdan ikki asosiy elementni o‘z ichiga oladi: birinchisi, ma’muriy organlar faoliyatining normativ asosga egaligi, ikkinchisi esa vakolatning chegaralanganligi. Bu borada nemis ma’muriy huquqshunosi Otto Mayer davlat boshqaruvi organlari faqat qonun bilan berilgan vakolatlar doirasida harakat qilishi mumkinligini, aks holda bunday harakatlar huquqiy kuchga ega bo‘lmasligini ta’kidlaydi (Mayer O., Deutsches Verwaltungsrecht, Leipzig, 1895). Mayerning fikricha, ma’muriyatning har qanday aralashuvi qonuniy asosga ega bo‘lmasa, u shaxs huquqlarini buzuvchi noqonuniy xatti-harakat sifatida baholanadi.[3] Bu g‘oya keyinchalik Yevropa kontinental ma’muriy huquq tizimining markaziy tamoyiliga aylangan.

Rossiyalik olim Yuriy A. Tixomirov ma’muriy huquqda qonuniylikni “davlat boshqaruvi faoliyatining normativ chegaralanganligi” sifatida izohlaydi va uning buzilishi davlat boshqaruvi tizimining legitimligiga putur yetkazishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, qonuniylik prinsipi nafaqat tashkiliy-intizomiy talab, balki fuqarolarning ishonchini ta’minlovchi omildir.[4]

O‘zbekiston huquqiy tizimida ham qonuniylik prinsipi konstitutsiyaviy asosga ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat organlari va mansabdor shaxslar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritishi shartligi belgilangan. Bu norma ma’muriy tartib-taomillar sohasida maxsus qonun orqali rivojlantirilgan. “Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun ma’muriy organlarning qaror qabul qilish jarayonida qonuniylikni ta’minlash uchun protsessual kafolatlar – manfaatdor shaxsni tinglash, asoslantirilgan qaror qabul qilish, shikoyat qilish huquqi kabi mexanizmlarni belgilaydi. Bu jihatlar qonuniylik prinsipining amaliy ifodasidir.

Ma’muriy tartib-taomillarning **mutanosiblik** (proporsionallik prinsipi deb ham ataladi) prinsipi ma’muriy huquqning eng muhim moddiy-huquqiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u ma’muriy organ tomonidan qo‘llaniladigan har qanday chora, qaror yoki aralashuv ko‘zlangan qonuniy maqsadga nisbatan ortiqcha, haddan tashqari yoki nomuvofiq bo‘lmasligi lozimligini anglatadi. Ushbu prinsip davlat hokimiyatining shaxs huquq va erkinliklariga aralashuvini minimal zarurat doirasida cheklashga xizmat qiladi hamda huquqiy davlat konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida bu tamoyil normativ jihatdan “Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra ma’muriy organ tomonidan ko‘riladigan chora qonuniy maqsadga erishish uchun zarur va yetarli bo‘lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug‘dirmasligi kerak.

Mutanosiblik prinsipi tarixan nemis ma’muriy huquqida shakllangan bo‘lib, u bugungi kunda Yevropa huquqiy makonida keng qo‘llaniladi. Mutanosiblik prinsipi Yevropa Ittifoqi huquqida ham asosiy tamoyillardan biri sifatida e’tirof etilgan. Yevropa Ittifoqi sudining amaliyotida ushbu prinsip doimiy ravishda qo‘llanilib, ma’muriy va normativ choralar qo‘yilgan maqsaddan oshib ketmasligi talab qilinadi. Ingliz olimi Paul Craig o‘zining “Ma’muriy huquq” (Administrative Law) asarida mutanosiblik prinsipini sud nazoratining

zamonaviy va samarali shakli sifatida baholab, u oddiy “aqllilik” mezonidan ko‘ra chuqurroq tahlilni talab qilishini ta’kidlaydi. Craigning fikricha, mutanosiblik nazorati ma’muriy organning maqsadi bilan qo‘llangan vosita o‘rtasidagi real muvozanatni tekshiradi.[5]

Shu bilan birga, nemis olimi Hans J. Wolff o‘zining “Ma’muriy huquq” asarida mutanosiblik prinsipini ma’muriy huquqning umumiy prinsipi sifatida baholab, u konstitutsiyaviy asosga ega ekanini ko‘rsatadi. Uning fikricha, har qanday ma’muriy chora shaxsga ortiqcha yuk yuklamasligi lozim, aks holda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.[6] Bu esa mutanosiblik prinsipining bevosita sud nazorati bilan ta’minlanishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mutanosiblik prinsipi ma’muriy tartib-taomillarda davlat hokimiyatining aralashuvini zarur darajada va muvozanatli shaklda amalga oshirishni talab etadi. U ma’muriy organning qonuniy maqsadini inkor etmaydi, balki bu maqsadga erishish vositalarining haddan oshmasligini ta’minlaydi. Ilmiy adabiyotlar va sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu prinsip zamonaviy ma’muriy huquqning markaziy elementiga aylangan bo‘lib, u davlat va shaxs o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlashning eng muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Ma’muriy tartib-taomillarning **ishonchning himoya qilinishi** prinsipi (inglizcha “legitimate expectations” yoki nemischa “Vertrauensschutz”) ma’muriy huquqning zamonaviy va murakkab tamoyillaridan biri bo‘lib, u davlat organlari faoliyatining barqarorligi va oldindan bashorat qilinuvchanligini ta’minlash orqali shaxsning davlatga nisbatan asosli ishonchini huquqiy jihatdan himoya qilishni anglatadi. Ushbu prinsipga ko‘ra, agar shaxs ma’muriy organ tomonidan qabul qilingan qaror, ruxsat, litsenziya yoki rasmiy bayonotga asoslanib o‘z xulq-atvorini shakllantirgan bo‘lsa, keyinchalik davlat organi bu qarorni o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishi yoki bekor qilishi mumkin emas yoxud bunday bekor qilish shaxs manfaatlariga mutanosib va asoslangan bo‘lishi shart. Mazkur prinsip huquqiy davlat konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, huquqiy aniqlik g‘oyasining ma’muriy protsessual sohadagi ifodasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu prinsip tarixan nemis ma’muriy huquqida “Vertrauensschutz” tushunchasi asosida shakllangan. Nemis huquqshunosi Hans J. Wolff o‘zining “Ma’muriy huquq” asarida ma’muriy huquqning umumiy prinsiplari qatorida ishonchning himoya qilinishi tamoyilini huquqiy aniqlikning ajralmas elementi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, agar ma’muriy organ qonuniy asosda ma’lum bir ijobiy ma’muriy hujjat chiqargan bo‘lsa, shaxs ushbu hujjatning barqarorligiga ishonishga haqli bo‘ladi va uni bekor qilish faqat qonunda nazarda tutilgan istisno holatlarda hamda shaxs manfaatlari hisobga olingan holda amalga oshirilishi mumkin.[7] Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi amaliyotida ham ushbu prinsip huquqiy davlat tamoyilining tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilgan.

Fransuz ma’muriy huquqida ham ishonchni himoya qilish prinsipi sud amaliyoti orqali rivojlangan. Fransuz huquqshunosi Moris Oriu o‘zining “Ma’muriy huquq va ommaviy huquqning qisqacha bayoni” asarida ma’muriy aktlarning barqarorligi va shaxsning davlatga bo‘lgan ishonchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlab, ma’muriy hokimiyatning o‘z qarorlarini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishi huquqiy tartibning izchilligiga putur yetkazishini qayd etadi.[8] Keyinchalik Fransiya Davlat Kengashi amaliyotida huquqiy aniqlik va

ishonchni himoya qilish g‘oyalari yanada mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasida ishonchning himoya qilinishi prinsipiga ko‘ra ma’muriy organ o‘zining qonuniy va asosli qaroriga nisbatan shaxsda vujudga kelgan ishonchni hurmat qilishi va uni asossiz ravishda buzmasligi lozim. Qonun ma’muriy hujjatni bekor qilish yoki o‘zgartirish masalasida shaxsning huquqlari va manfaatlarini hisobga olishni talab etadi. Bu norma huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta’minlash orqali investitsion muhit, tadbirkorlik faoliyati hamda fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ishonchning himoya qilinishi prinsipi ma’muriy tartib-taomillarda davlat hokimiyatining barqarorligi, huquqiy aniqlik va adolat tamoyillarini ta’minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Ilmiy manbalar va sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu prinsip davlat organlarining o‘z qarorlarini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishini cheklaydi, shaxsning asosli kutishlarini himoya qiladi va huquqiy davlat tamoyilining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ma’muriy tartib-taomillar tizimida shaxs va davlat o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlashning muhim kafolatlaridan biridir.

Ma’muriy tartib-taomillarning maxsus prinsiplaridan yana biri **ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretsion vakolatning) qonuniyligi**dir. Ma’muriy ixtiyoriylikning qonuniyligi – bu ma’muriy organlarga qonun tomonidan berilgan diskretsion vakolatlarni amalga oshirishda nafaqat imkoniyat, balki bu vakolatni qonun bilan belgilangan me’yorlar, maqsadlar va cheklovlar doirasida oqilona, adolatli va shaxs huquqlarini himoya qiluvchi tarzda qo‘llashni talab qiluvchi huquqiy tamoyildir. Diskretsion vakolatlar mavjud bo‘lganda ham, ularning amalga oshirilishi qonuniylik tamoyili bilan chegaralanadi: ya’ni qaror qabul qilish subyektlari qonuniy maqsadni ko‘zlashlari, shaxs huquqlariga bexosdan aralashmasliklari va qarorlarini asoslashlari shart. Bu prinsip zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasi asosida ma’muriy vakolatning holatga mos va prognozli qo‘llanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlar diskretsion vakolatlar mohiyatini va ularning qonuniylik bilan bog‘liqligini chuqur tahlil qiladi. Masalan, Maria G. Navarro tomonidan nashr etilgan maqolada ma’muriy diskretsiya tushunchasi shunday izohlanadiki, bu faqat qonundagi ixtiyoriy imkoniyatni emas, balki ma’muriy qaror subyektining qarorini asoslash va bu qarorni huquqiy normalar bilan uyg‘unlashtirish majburiyatini ham o‘z ichiga oladi. Diskretsiyaga asos bo‘lgan qarorlar huquqiy makonda shaffof va asosli bo‘lishi kerak, chunki asosiy vakolat qonun bilan berilganidan kelib chiqadi.[9]

Shuningdek, ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, diskretsion vakolatni qonuniy amalga oshirish uchun sud nazorati katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy adabiyotlarda ma’muriy organlar qarorlarida diskretsiya “adolat sari intilish” deb talqin qilinadi: qaror shaxs huquqlarini himoya qiluvchi umumiy huquqiy mezonlarga javob berishi kerak va arbitraj yoki subyektiv baholash natijasiga asoslanmasligi lozim. Shu nuqtayi nazardan diskretsion vakolatlar ham qonuniylik prinsipiga bo‘ysunadi, chunki u ma’muriy organ qarorini huquqiy normalar asosida qiyoslab chiqadi hamda huquqiy adolat tamoyillarini saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, **ma’muriy ixtiyoriylikning qonuniyligi prinsipi** shuni talab qiladi: ma’muriy organlar qonun bilan belgilangan diskretsion vakolatni faqat qonuniy maqsadlar yo‘lida, huquqiy normalar asosida va shaxs

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

huquqlarini himoya qilish bilan uyg‘unlashtirib amalga oshirishi shart. Diskretsion vakolat qonuniylik prinsipi ostida prognozli, shaffof, asoslangan bo‘lishi lozim, chunki qonuniylik bu vakolatni suiiste’mol qilishni oldini oladi va huquqiy davlat tamoyilini himoya qiladi.

Ma’muriy tartib-taomillarning **tinglanish imkoniyatining mavjudligi** prinsipi (right to be heard, audi alteram partem) ma’muriy huquqning asosiy protsessual kafolatlaridan biri bo‘lib, u ma’muriy organ tomonidan shaxsning huquq va manfaatlariga daxldor qaror qabul qilinishidan oldin ushbu shaxsga o‘z fikrini bildirish, dalillar taqdim etish va o‘z pozitsiyasini himoya qilish imkoniyati berilishini anglatadi. Mazkur prinsip adolatli ma’muriy jarayonning ajralmas elementi hisoblanadi hamda huquqiy davlat va protsessual adolat konsepsiyasining ma’muriy huquqdagi ifodasidir. O‘zbekiston Respublikasida ushbu tamoyil normativ jihatdan “Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun bilan mustahkamlangan bo‘lib, unda manfaatdor shaxsga ma’muriy ish yuritish jarayonida o‘z fikrini bayon etish huquqi kafolatlanadi.

Tinglanish huquqining nazariy ildizlari rim huquqidagi “audi alteram partem” qoidasi bilan bog‘liq bo‘lib, u “ikkinchi tomonni ham eshit” degan ma’noni anglatadi. Ingliz konstitutsiyaviy huquqshunosi A. V. Dicey “Konstitutsiyaviy huquqqa kirish” asarida qonun ustuvorligi konsepsiyasini ishlab chiqarkan, davlat organlari qarorlari sud nazoratiga ochiq bo‘lishi va shaxs o‘zini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi.[10] Keyinchalik ingliz ma’muriy huquqida tabiiy adolat (natural justice) doktrinasi shakllanib, unda tinglanish huquqi asosiy komponent sifatida qaralgan.

Britaniyalik olim Paul Craig o‘zining “Administrative Law” (London, 2016) asarida tinglanish huquqini protsessual qonuniy kutilmalar va protsessual adolat tushunchalari bilan bog‘laydi. Craigning fikricha, ma’muriy organ qaror qabul qilishdan oldin manfaatdor shaxsga real va samarali tarzda o‘z dalillarini taqdim etish imkoniyatini berishi shart, aks holda qaror sud tomonidan bekor qilinishi mumkin. U sud amaliyotida tinglanish huquqi buzilgan ishlarning sezilarli qismi aynan protsessual xatolar tufayli bekor qilinishini qayd etadi.[11]

Yevropa huquqiy makonida tinglanish prinsipi keng qo‘llaniladi. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi amaliyotida Yevropa inson huquqlari konvensiyasining 6-moddasi (adolatli sud muhokamasi huquqi) doirasida shaxsning tinglanish huquqi e’tirof etiladi. Sud statistik ma’lumotlariga ko‘ra, har yili Konvensiyaning 6-moddasi buzilishi bo‘yicha yuzlab ishlar ko‘rib chiqiladi. Bu ko‘rsatkich protsessual kafolatlar, jumladan tinglanish imkoniyati, inson huquqlarini himoya qilishda markaziy o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqi huquqida ham tinglanish huquqi umumiy huquqiy prinsip sifatida tan olingan. Yevropa Ittifoqi sudi amaliyotida agar ma’muriy qaror shaxs manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatsa, ushbu shaxsga qaror qabul qilinishidan oldin o‘z fikrini bildirish imkoniyati berilishi shartligi qayd etilgan. Sud qarorlarida protsessual xatolik, xususan tinglanish imkoniyatining berilmaganligi qarorni haqiqiy emas deb topish uchun yetarli asos bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Nemis ma’muriy huquqida tinglanish huquqi “Anhörungsrecht” sifatida mustahkamlangan. Nemis olimi Hans J. Wolff ma’muriy protsedurada shaxsni tinglash huquqi huquqiy davlat tamoyilining bevosita ifodasi ekanini ko‘rsatadi. Uning fikricha, shaxsga tinglanish imkoniyati berilishi nafaqat adolatni ta’minlaydi, balki ma’muriy qaror sifatini ham oshiradi, chunki organ

barcha muhim fakt va dalillarni inobatga olgan holda qaror qabul qiladi.

Fransuz huquqshunosi Moris Oriu ma’muriy jarayonda protsessual kafolatlarning ahamiyatini ta’kidlab, davlat hokimiyati qarorlari shaxs huquqlariga ta’sir ko‘rsatgan hollarda protsessual muvozanat ta’minlanishi zarurligini qayd etgan. Bu yondashuv keyinchalik Fransiya Davlat Kengashi amaliyotida rivojlangan.

O‘zbekiston Respublikasida “Ma'muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun bilan manfaatdor shaxsga ma’muriy ish materiallari bilan tanishish, dalillar taqdim etish va tushuntirish berish huquqini kafolatlaydi. Ushbu norma ma’muriy qarorlarning asoslantirilganligini oshiradi va sud nazoratida muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqilayotgan nizolarning sezilarli qismi protsessual talablarning buzilishi, jumladan shaxsni tinglamasdan qaror qabul qilinganligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib, tinglanish imkoniyatining mavjudligi prinsipi ma’muriy tartib-taomillarda shaxs va davlat o‘rtasidagi protsessual tenglikni ta’minlovchi asosiy kafolatdir. Ilmiy manbalar va sud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ushbu prinsip qaror qabul qilish jarayonining shaffofligi, adolatliligi va asoslanganligini ta’minlaydi. Tinglanish huquqi nafaqat shaxs manfaatlarini himoya qiladi, balki ma’muriy boshqaruv sifatini oshiradi va davlat organlariga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi. Shu bois u zamonaviy ma’muriy huquqning ajralmas va universal tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplari zamonaviy huquqiy davlat barpo etishning ajralmas institutsional va funksional asosini tashkil etadi. Ushbu prinsiplarga rioya etilishi ma’muriy organlar faoliyatining qonuniyligi, shaffofligi, asoslanganligini ta’minlab, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi. Qonuniylik, mutanosiblik, ishonchning himoya qilinishi, ma’muriy ixtiyoriylikning qonuniyligi va tinglanish huquqi kabi tamoyillar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda ma’muriy jarayonning adolatli va muvozanatli amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur prinsiplarga amal qilinishi nafaqat ma’muriy qarorlarning sifatini oshiradi, balki davlat organlariga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi, korrupsion xavflarni kamaytiradi hamda boshqaruv samaradorligini oshiradi. Aksincha, ushbu prinsiplarga rioya qilinmasligi ma’muriy nizolar sonining ortishiga, sudlarda qarorlarning bekor qilinishiga hamda fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi pasayishiga olib keladi. Shu bois, ma’muriy tartib-taomillar prinsiplari nafaqat nazariy-huquqiy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan ham davlat boshqaruvi tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishining muhim kafolati hisoblanadi.

Xalqaro tajriba va rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni tasdiqlaydiki, ma’muriy protseduralarda ushbu prinsiplarga qat’iy amal qilinishi huquq ustuvorligini ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham mazkur prinsiplarga asoslangan ma’muriy tartib-taomillar tizimini yanada takomillashtirish, ularni amaliyotga to‘liq joriy etish hamda sud nazorati mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Zero, aynan ushbu prinsiplar orqali davlat va shaxs o‘rtasida adolatli huquqiy muvozanat ta’minlanadi va huquqiy demokratik davlatning mustahkam

poydevori yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Я. Цико. Основы законодательства об административных процедурах в Германии. Ежегодник публичного права. – 2014. М. С. 365;

2. S.A. Muratayev, B.T. Musayev, D.R. Artikov. Ma’muriy huquq va protsess. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. – 307-b;

3. Otto Mayer: Deutsches Verwaltungsrecht, 3. Aufl., 1924 https://www.researchgate.net/publication/250059887_Wiedergelesen_Otto_Mayer_Deutsches_Verwaltungsrecht_3_Aufl_1924;

4. Тихомиров, Ю. А. Административное право и процесс: полный курс / Ю. А. Тихомиров. – 2-е изд., доп. и перераб. – Москва: Издание М. Ю. Тихомирова, 2005. – 697 с. https://files.znu.edu.ua/files/2018/skachano/AP/AP2016n1.pdf;

5. Craig P. EU administrative law. – Oxford University Press, 2018;

6. Wolff H. J. Verwaltungsrecht //JuristenZeitung. – 1953. – Т. 8. – №. 3. – С. 87-89. https://www.jstor.org/stable/20802791;

7. Wolff H. J. Verwaltungsrecht //JuristenZeitung. – 1953. – Т. 8. – №. 3. – С. 92-93. https://www.jstor.org/stable/20802791;

8. Maurice Hauriou, Précis de droit administratif et de droit public, 1927. 4e edition. Paris, 896 p.

https://books.google.co.uz/books/about/Pr%C3%A9cis_de_droit_administratif_et_de_dro.html?id=I4aG0QEACAAJ&redir_esc=y;

9. Navarro M. G. Discrecionalidad administrativa. – 2012. https://digital.csic.es/handle/10261/57024

10. Dicey A. V., Wade E. C. S. Introduction to the Study of the Law of the Constitution. – London: Macmillan. – Т. 1950;

11. Craig P. EU administrative law. – Oxford University Press, 2018.